

MUTRIBIY SAMARQANDIYNING “NUSXA-YI ZEBO-I JAHONGIR” ASARI MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Tadjiyev Anvar Gafurjonovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi

Harbiy musiqa akademik litseyi tarix o'qituvchisi

anvartadjiyev82@gmail.com

Kalit so'zlar: Mutribi Samarqandiy, “Nusxa-yi zeboi Jahongir”, Jahongir podshoh, tazkiranaviy an'ana, Markaziy Osiyo, Hindiston, fors adabiyoti, tarixiy manba, madaniy aloqalar, XVII asr adabiy muhiti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur tazkiranavis va adabiyotshunos olim Sulton Muhammad Mutribi Samarqandiyning “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asari tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, tuzilishi, mazmun doirasi hamda unda yoritilgan XVI–XVII asrlar adabiy-madaniy muhiti ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqotda asarning O'rta Osiyo, Eron va Hindiston xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni o'rganishdagi manbaviy ahamiyati, shuningdek, Mutribiyning “Tazkirat-ush-shuaro” asari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

Muallif asar orqali o'z davrining adabiy, ilmiy va ijtimoiy muhitini yoritganini, shoirlar, olimlar hamda saroy arboblari o'rtasidagi ilmiy-ijodiy munosabatlarni aniq dalillar bilan bayon etganini ta'kidlaydi. Shuningdek, “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asari orqali Markaziy Osiyo va Hindiston adabiy maktablari o'rtasidagi uzviylik hamda forsiy tazkiranaviy an'analarning rivojlanish yo'nalishlari yoritib beriladi. Ushbu tadqiqot Mutribiy asarining o'z davr adabiy jarayonlari va madaniy aloqalarini o'rganishdagi o'rni va tarixiy qiymatini aniqlashga qaratilgan.

Mashhur tazkiranavis, adabiyotshunos olim, tarix, musiqa, falsafa bilimdoni, xattotlik va naqqoshlik ustasi Sulton Muhammad Mutribiy Samarqandiyning qalamiga ko'pchilikka ma'lum “Tazkirat ush-shuaro” asaridan tashqari yana ikki mustaqil asar — “Nusxa-yi zeboi Jahongir” va “Xotiroti Mutribiy” ham mansubdir. Bu ikki asar Angliyadagi Indian Office kutubxonasida bir muqova ostida “Tarix-i Jahongir” nomi bilan saqlanadi. Bu haqda o'z vaqtida ingliz sharqshunosi German Ete ham so'z yuritgan.¹ “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asarining so'nggi va yakuniy qismi, uning o'zi — Jahongir tomonidan tuzilgan bo'lib, “Xotiroti Mutribiy” bilan birgalikda Pokistonning Karachi shahrida alohida kitob holatida nashr etilgan. Bu nashr 1976 va 1977 yillarda sovet sharqshunosi Abdulgani Mirzayev hamda pokistonlik

¹ Ethe H. Catalogue of the Persian Manuscripts in the library of the India Office, vol. II, Oxford, 1937, p. 10-11.

adabiyotshunoslar Mahmud Hasan Siddiqiy va Sa'id Hasomuddin Rashdiy hamkorligida amalga oshirilgan.²

Har ikki asar ham XVI–XVII asrlardagi Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindiston adabiy aloqalarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, ular tadqiqotchilar ixtiyorida Mutribiy hayoti, uning yaqin muhiti — ya'ni u shakllangan ijodiy doira hamda Mutribiyning asosiy qiziqish sohalari haqida yangi ma'lumotlar taqdim etadi.

Mutribi o'zining ikkinchi antologiyasi bo'lmish “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asarini yaratish ustida 1620–1624 yillar davomida jadal ish olib borgan. U bu yillarda Mavorounnahr, Balx va Badaxshon shaharlariga ko'p safar qilgan va antologiya uchun zarur bo'lgan materiallarni to'plagan.

1624 yilda, ya'ni 69 yoshida, Matrabi mazkur asarni yozishga kirishgan va uni bir yil ichida yakunlagan.

1625 yil kuzida u o'g'li Muhammad Ali bilan birga Hindistonga yo'l olgan. Yo'lda u Balx va Kobul shaharlarida biroz vaqt to'xtab, bu fursatdan yangi materiallar to'plash uchun foydalangan.

Nihoyat, keyingi yili u Lahorga yetib borgan — o'sha paytda bu yerda Jahongir saroyi joylashgan edi. Matrabi u yerda bir necha oy davomida antologiya ustida ishini davom ettirgan va uni tugallab, nihoyat Jahongir huzuriga taqdim etgan.

Yuqoridagi ma'lumotdan ko'rinadiki, asar asosan 1625 yilgacha Samarqandda yozilgan. Ammo muallif uni Samarqanddan Hindistonga yo'l olgan safarida — Balx, Kobulda va Lohorga kelganidan keyin ikki oy davomida ham yozishda davom etgan.

Qisqasi, mazkur tazkirasiga muallif Balx va Kobulda uzoq to'xtab turgan paytida to'plagan yangi materiallar kiritilgan, shuningdek, antologiya bilan tanishib chiqqanidan so'ng, unga Jahongirning o'zi tomonidan taqdim etilgan materiallar ham qo'shilgan.³

“Xotiroti Mutribiy”⁴ asarida aytilishicha, Mutribiy tazkirasi oxir-oqibat Podshoh va uning atrofida gilar tomonidan ma'qullangan, biroq uni saroy kutubxonasiga topshirishdan avval Jahongir Mutribiydan o'z materiallarini unga kiritishni va tazkirani o'z nomi bilan bezashni so'ragan.

Mutribiy bu haqda Jahongirning quyidagi so'zlarini keltiradi: “Marhum buyuk otam (Alloh uni rahmatiga olsin) hukmronlik qilgan davr shoirlariga oid bir necha varaq materialni men yoshlik chog'imda to'plagan edim. Ularni siz biroz qayta ishlasangiz va o'z asaringizga kiritsangiz, juda yaxshi bo'lardi.”

Men, deydi Mutribiy, itoat etdim va ikki misrani o'qidim:

² Б.А.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УзССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г. 34-bet.

³ O'sha kitob, 37-bet.

⁴ Хотироти Мутриби. (Беседа с Джахангир падишах). Под. к печат А.Мирзоев. -Карачи, 1977. 62., с. 70.

Ey Xudo! Quyosh va oy porlab turgan ekan,
Jahongir ibn Akbar podshoh ham bo'lsin! ⁵

Jahongir tomonidan Mutribiyga topshirilgan material hajm jihatidan kichik bo'lib, unda jangchi podshoh Jaloliddin Muhammad Akbar hukmronligi davrida Hindustonda yashab, shuhrat qozongan 8–10 nafar shoir haqida juda qisqa ma'lumotlar bor edi. Mutribiy bu materialni o'z tazkirasining oxiriga kiritgan.

“Nusxayi zebo-yi Jahongir” asarining o'zi esa, XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida Movarounnahr, Badaxshon, Hindiston va Eronda yashagan 292 nafar shoir haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan. Hatto uning bosma nashri ham mavjud emas. Avval aytilganidek, Shohjaxonobodda 1665-yil 10-mart (23 sha'bon 1075 yil)da Muhammad Amin al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma hozirda Angliyada, India Office kutubxonasida saqlanmoqda.⁶

Aytish joizki, ushbu asar olimlar tomonidan noto'g'ri “Jahongir tarixi” deb nomlangan, bunda German Ete, Charlz Stori, Zabixulloh Safa, Ahmadi Munzaviy, Alireza Nakaviy va Ahmed Gulchini Ma'ni kabi mualliflar ushbu nomni ishlatganlar va Ali Rafi ushbu olimlarning xatosining sababini “Jahongirning go'zal nusxasi” asarining kotibi Muhammad Amin Husayniyning ishida topdi, chunki u 1075/1665 yilda ushbu qo'lyozmaning nomini noto'g'ri ravishda “Tarixi Jahongiri” deb yozgan.⁷

Tadqiqotchi F. Akramovning ta'kidlashicha, bu asar “Tazkirat-ush-shuaro”ning mantiqiy davomi hisoblanadi.⁸ Shu sababli, tuzilishi jihatidan ham unga o'xshaydi. “Nusxayi zebo-yi Jahongir” asari kirish, xulosa va ikki bobdan iborat. Birinchi bob — Chig'atoylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar haqida hikoya bo'lib, ular avvalgi shoirlar orasida shuhrat libosini kiygan, ularning devonlari Movarounnahrda mashhur bo'lgan. Shuningdek, u Boburiylar davrida Shimoliy Hindistonda va Badaxshon hamda Shimoliy Hindistonning taniqli avvalgi shoirlari ijodiga bag'ishlangan.

Ikkinchi bob esa mashhur bo'lgan va shuhrat libosini kiygan o'zbek hukmdorlari hamda avvalgi shoirlar haqida hikoya qiladi va u o'z navbatida ikki qismdan iborat. Birinchi qism — buyuk Shayboniylar sulolasiga mansub hukmdorlar va ularning davrida yashagan shoirlar haqida. Ikkinchi qism esa nasabi buyuk Chingizxon sulolasiga borib taqaluvchi hukmdorlar hamda ularning davrida shuhrat topgan

⁵ Mutribi Samarqandi's Conversations with Emperor Jahangir(Selections) Translated by Richard Foltz . Университет Вашингтона, © 2003 Silk Road Seattle

⁶ Б.А.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УЗССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г. 34-бет.

⁷ Qurbonaliyeva, M. S. (2024). Mutyribi Samarkandi and his poems. Science and Innovation International Scientific Journal, 3(3), 96–100.98-99-бетлар.

⁸ Акромов Ф. Тазкирай “Нусхаи зебои Чахонгирӣ”-и Мутрибӣ чун сарчашмаи омӯзиши ҳаёти адабии Мовароуннахру Ҳинд [Асри XVI ва ибтидои асри XVII]. – Душанбе, 1998. -140 с. 33-бет.

shoirlarga bag'ishlangan. Xulosa (xotima) qismi esa Allohning soyasi — Jahongir podshoh huzuridagi xizmatlar va bu xizmatlar davomida yuz bergan voqealar haqida hikoya qiladi.

Biroq, ushbu kitobda birinchi qismida muallif Hindiston temuriylar sulolasi shohlaridan Akbarshoh va Jahongirshohning adolati haqida ko'proq to'xtalib o'tadi, ikkinchi qismida esa — asosan shoirlarga bag'ishlangan — davrning mashhur 19 nafar shoiri haqida ma'lumot beradi.

F.Akramovning ma'lum qilishicha, bu guruhga kiruvchi shoirlar quyidagilar:

Fayziy Dahkaniy

Urifiy Sheroziy

Mavlono Muhtashamiy Koshiy

Xo'ja Husayn Sanoyi

Mavlono G'ayratiy Mavorounnahriy

Kamol Mirzomalik

Majariy Kashmiriy

Mavlono Shikebiy Isfahoniy⁹

Mutribiyning ushbu tazkirasi "Tazkirat-ush-shuaro"dan farq qiluvchi yana bir jihati shundaki, u shoirlarni ular bilan bo'lgan tanishlik darajasiga ko'ra toifalarga ajratmaydi. Biroq, ularning ijtimoiy ahvoli va adabiy muhitiga oid ma'lumotlarni bayon etar ekan, muallif albatta ular bilan uchrashgani yoki suhbat qilganini bevosita yoki bilvosita tilga oladi.

Mutribning ushbu asarida ta'kidlash lozim bo'lgan yana bir jihat shuki, muallif tomonidan shoirlar haqida berilgan ma'lumotlar juda aniq va batafsildir. Akademik A. Mirzoev bu nuqtaga yaxshi e'tibor qaratib, shunday yozadi: "Jahangir tazkirasi ba'zi shoirlar, jumladan Shayx Faizi, Urfi Shirozi, Xoja Hasan Nisari, Mashhadi, Mushfiqi va boshqalar haqida berilgan tarjimai hollar Mutribning tazkirasida ham batafsil keltirilgan"¹⁰

Asarning yana bir muhim jihati shuki, u o'z davrining kam tanilgan olimlar guruhini ham yoritadi, masalan, Buxoro Maulonasi Olim, Qobuldan Vasil, Qobuldan Sabuhi, Iroqlik Maulona Nomi, Samarqandlik Maulona Xojakalla, Badaxshonlik Naziri va boshqa ko'plab shaxslar. Ularning nomlari va ijod namunalarini aynan shu kitob orqali bizga yetib kelgan.

Muallif faqat badiiy asarlarga emas, balki ularning ilmiy ishlari va kasbiy faoliyatiga ham e'tibor qaratadi. Bu esa, davr adabiyotining rivojlanish yo'nalishlari

⁹ Акромов Ф. Тазкирани "Нусхаи зебои Ҷаҳонгирӣ"-и Мутрибӣ чун сарчашмаи омӯзиши ҳаёти адабии Мовароуннахру Ҳинд [Асри XVI ва ибтидои асри XVII]. – Душанбе, 1998. 44-bet.

¹⁰ Qurbonaliyeva, M. S. (2024). Mutyribi Samarkandi and his poems. Science and Innovation International Scientific Journal, 3(3), 96–100. 99-bet.

va adabiy g'oyalarning xususiyatlarini har tomonlama tushunish uchun zaruriy nuqta hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Mutribiy adabiyot, san'at va ilm sohalarida ustoz-shogird maktabi shakllanishiga ham alohida e'tibor qaratgan va shoirlarning o'zaro ilmiy munosabatlari, ular o'rtasidagi ta'sir va samaradorlik jihatlariga qisqa va batafsil tahlil bergan holda, ularning dunyoqarashi shakllanishi uchun asos yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, Mutribiy tomonidan yaratilgan har ikki asarda — ya'ni “Tazkirat-ush-shuaro” va “Nusxa-yi zeboi Jahongir”da — muallif yashagan davrda mashhur bo'lgan saroy adabiyoti va shoir-podshohlar haqidagi muhim ma'lumotlar bilan birga, turli kasb va ilmiy sohaga mansub bo'lgan zamondosh olimlarning boy ijodiy merosi va ijod xususiyatlari ham yoritilgan. Tazkira muallifining batafsil sharhlari orqali o'z davridagi adabiy jarayonning turli jihatlarini ana shu shoirlar misolida kuzatish mumkin.

Muallif nafaqat badiiy asarlar, balki ushbu shoirlarning ilmiy faoliyati va kasbiy yo'nalishlariga ham e'tibor qaratgan. Bu holat, o'sha davr madaniy rivojlanish yo'nalishlarini, madaniy aloqalar taraqqiyotini va shakllanishini har tomonlama anglash uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, Mutribiy o'z asarlarida adabiyot, san'at va ilm sohalarida ustoz-shogird maktabining shakllanishiga ham alohida e'tibor qaratgan. U shoirlarning o'zaro ilmiy munosabatlari, aloqalari, ular o'rtasidagi ta'sirchanlik va samaradorlik masalalariga qisqacha, ammo aniq va chuqur tahlil berib, shoirlarning dunyoqarashi shakllanishi uchun mustahkam asos yaratgan.

Mutribi asarlari — bu faqat biografik yodnoma emas, bu — ruhiyat, musiqa, she'r va tarixning birlashgan manbai.

Mutribiy Samarqandiy uchun Hindiston — fors adabiyotining yangi markazi, musiqa va ilhomning jonli maydoni edi. “Nusxa-yi zeboi Jahongir” orqali u shuni ko'rsatadi:

“Samarqanddan boshlangan ilhom Lahorda o'z gulzoriga aylandi (yetishdi).”

Xulosa

Mutribi Samarqandiyning “Nusxa-yi zeboi Jahongir” asarida Eron va Xuroson shoirlari — Estetik zebolik va ma'no chuqurligining timsoli, Hindiston saroy muhitidagi forsiy madaniyatning asosiy ustuni, va Mutribiy uchun ilmiy hamda ma'naviy merosning davomchilari sifatida ko'rsatilgan.

Bu asarda u forsiy she'riyatni nafaqat tavsiflaydi, balki uning jahongiriy (ya'ni madaniyatni birlashtiruvchi) ahamiyatini ham ta'kidlaydi.

Mutribiy asarlari quyidagi jihatlar bilan juda muhim:

1. XVI–XVII asrlardagi Buxoro, Samarqand, Hirot va Lahor adabiy muhitini yoritib beradi.

2. O'rta Osiyo, Eron va Hindiston madaniy aloqalarini ilmiy asosda hujjatlashtirgan ilk manbalardandir.

3. "Nusxa-yi zeboi Jahongir" orqali u forsiy tilidagi hind adabiyotining rivoj bosqichini yoritib bergan.

4. Mutribi uslubi keyingi shoirlar — xususan, Bedil, Sayyido Nasafiy, Mushfiqiy, Nodirabegim kabi ijodkorlarga ta'sir ko'rsatgan.

"Nusxayi zebo-yi Jahongir" nafaqat Movarounnahr, Balx, Badaxshon, Eron va Shimoliy Hindistonning madaniy hayotini o'rganish uchun, balki XVI asrning ikkinchi yarmi — XVII asr boshlaridagi Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi adabiy aloqalarni tadqiq etish uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'xati

1. Акрамов Ф. Тазкирани "Нусхаи зебои Ҷаҳонگیر"-и Мутрибӣ чун сарчашмаи омӯзиши ҳаёти адабии Мовароуннахру Ҳинд [Асри XVI ва ибтидои асри XVII]. – Душанбе, 1998. -140 с.

2. Mutribi Samarqandi's Conversations with Emperor Jahangir(Selections) Translated by Richard Foltz . Университет Вашингтона, © 2003 Silk Road Seattle

3. Qurbonaliyeva, M. S. (2024). Mutyribi Samarkandi and his poems. Science and Innovation International Scientific Journal, 3(3), 96–100.

4. Б.А.Ахмедов. Мутриби и его антологии. - В кн.: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. ИВ АН УзССР. Т.: «Фан» Узбекской ССР, 1986 г.

5. Ethe H. Catalogue of thee Persian Manuscripts in the library of the India Office, vol. II, Oxford, 1937.

6. Хотироти Мутриби.(Беседа с Джахангир падишах). Под. к печат А.Мирзоев. -Карачи, 1977. 62.